

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova

Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi 107

D.B.Mahometova

Use of information technologies in education..... 112

M.Norinov

Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi..... 115

G.T.Hojikarimova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 119

X.M.Jo'rayev

Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari 123

N.B.Odilxo'jazoda

Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 128

B.T.Tojibayev, S.S.Isokov

Globallashuv kontekstida – ta'lim 132

D.Q.Oxunova

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari..... 136

N.E.Yuldasheva

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 140

B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova

Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish..... 144

FALSAFA**Б.С.Ганиев**

Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане 150

M.D.Pardaeva

Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati..... 156

Z.P.Nadirova

Intuitive cognition as a synergistic process..... 161

X.X.Raxmatova

Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot 165

Z.A.Akhmedova

Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili..... 170

B.X.Karimov

Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini..... 175

L.M.Karimova

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari 180

M.M.Gulamova

Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati..... 185

O.T.Sharipova

Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida 189

Sh.B.Sattorova

Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos taddiqi..... 194

B.X.Hamdamov

Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari..... 200

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

CHARACTERISTICS OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN DEVELOPING
PROFESSIONAL COMPETENCE OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna¹

¹Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'onada filiali, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvlarga xos xususiyatlarida fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv fanlari mazmunini eng kamida DTS'lari darajasida sintezlab, shaklning oliy darajasi takomillashtirishda foydalaniladigan metodlarning talqini, kasbiy qobiliyatlarini, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi rolida noan'anaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматривается методика, используемая для совершенствования и развития профессиональной компетенции учителей физической культуры, синтеза содержания учебных дисциплин на уровне не менее ГОСа, интерпретации профессиональных способностей, роли учителя физической культуры в социокультурной жизни, а также методики, которые дополняют, расширяют и углубляют междисциплинарность, взаимосвязанность и взаимодополняемость в особенностях интегративных подходов к развитию профессиональной компетентности учителя физической культуры.

Abstract

In this article, the characteristics of integrative approaches to the development of the professional competence of a physical education teacher include interdisciplinarity, interrelationship and complementarity, expanding and deepening, synthesizing the content of educational subjects at least at the level of SES(State Education Standard), and the highest level of form. the interpretation of methods used in improvement, professional skills, the importance of non-traditional pedagogical technologies in the role of physical education teachers in the socio-cultural life are highlighted.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy qobiliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, maqsadli ta'lim.

Ключевые слова: физическое воспитание, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональные способности, личностно-ориентированное образование, целевое образование.

Key words: physical culture, competence, professional competence, professional ability, person-oriented education, targeted education.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida yaxlit barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi mohiyatan yangi didaktik paradigma negizida bilim olish zamонавиy tendensiylariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabni tobora oshib borishiga olib keldi. Ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash tizimining eng muhim elementi hisoblangan o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, doimiy va izchil ravishda oshirib borish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birgalikda "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarini aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyatga joriy etish"¹ ga ehtiyoj borligi qayd etilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini boshqarish, nazorat qilish va baholash jarayonini zamонавиylashtirish bilan birga ularning kasbiy kompetentligini muttasil rivojlantirib borishni dolzarb vazifalardan biriga aylantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Malaka oshirish tizimi tinglovchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha A.D.Asqarov, U.Sh.Begimqulov, G.T.Boymurodova Sh.S.Boboyorov, R.X.Djurayev, A.YE.Ibraymov, Z.K.Ismailova, U.I.Inoyatov, I.A.Eshmamatov, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, M.T.Mirsoliyeva, B.A.Nazarova, B.S.Nuridinov, Q.T.Olimov, N.B.Odilxo'jazoda, X.F.Rashidov,

PEDAGOGIKA

O'Q.Tolipov, A.A.Xalikov, D.O.Ximmataliyev, J.A.Hamidov, T.T.Shoymardonovlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O.A.Abdulina, L.G.Aferina, V.P.Bespalko, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, Z.A.Kargina, N.V.Kuzmina, G.V.Kalkova, A.S.Markova, A.M.Nekrasov, A.I.Noskov, V.A.Slasteninlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

A.Blum, K.Ghosh, K.Grey, R.Mohanlap ta'limdi ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib borishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Integratsiya tushunchasining mohiyati o'quv fani darsligida blokli va tadrijiy usulda o'z ifodasini topgan. Unda tabiat nafaqat insonni o'rab turgan borliq, olam sifatida, balki inson bilan uzbek bog'liq bo'lgan yashash imkonini tarzida talqin qilingan. [20;1446-1462- b.]

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'llaridan biri hisoblangan integratsiya talabiga aynan mos dastlabki integrativ darslik yaratilishi mamlakat uzluksiz ta'lim tizimida muhim voqeа. Umumta'lim tizimidagi o'quv fanlari integratsiyasi pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunida ba'zi o'zgarishlarni taqozo qiladi.

Fanda "integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo'llanilishiga qaramay, unga davr taqozosiga ko'ra, yaqin paytlargacha yetarli ahamiyat berilgan emas.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda, integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologi G.S. Kostyukning fikricha: "Tabaqalanish differensiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya – tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv fanlari mazmunini eng kamida DTSlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun, shaklning oly darjasи. Chunki predmetlar-aro aloqadorlikning har qaysi quiyi darjasи, o'rganilayotgan o'quv fanlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'matilib, ularni o'rganish mazmuni va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Bundan farqli o'larоq, integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv fani yoki integratsiyalab o'rganilayotgan fan, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilар yordamida ifodalash, sabab-oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda, rivojlanib boradi yoki aksincha. [90;48-52-b.]

Integratsion ta'lim yo'nalishlarining muayyan aspektlarini tahlil qilishda M.N.Berulava, M.Pak, N.Y.Borisova, K.Y.Kolesina, R.Z.Mustafina, D.T.Mugallimova, S.I.Yakimenko va boshqalarning ishlaridan foydalанинди.

M.N.Berulavaning tadqiqotida integratsion ta'lim pedagogik hodisa sifatida qaraladi. U bugungi kunda integratsiya muammosiga ikki xil mazmunli va jarayonli yondashuv mavjudligini ko'rsatib, ikkinchisiga nisbatan e'tibor qaratadi. [30]

M.N.Berulavaning fikriga ko'ra, integratsiya – bu ta'lim vositalari, shartlari va metodlarini qo'llash jarayonidir, integratsiyaning ma'lum bir natijalari ta'lim oluvchilar bilimlarini sintez qilish natijasida ko'rindi. [30]

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik jarayonda integratsiya tushunchasiga turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. K.Y. Kolesina [67] integratsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini

tashkil qilish natijaviylik va ishonchlilikning oshishini ta'minlaydi, deb ta'kidlaydi. U integratsiyaning umumididaktik jihatlarini ta'lim jarayoni mazmunining moddiy va ma'naviy jihatlari sifatida ko'rib chiqadi.

K.Y.Kolesinaning tadqiqotlarida, mazmunni yangilovchi integratsion jarayonlar didaktik tamoyilga (ta'limda integratsiya tamoyiliga) o'tadi. Yanada to'liqroq tahlil mazmunni integratsiyalashning texnologik jihatlarini (fanlararo ta'limiy topshirqlarni o'zaro taqsimlash) batafsil tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. K.Y.Kolesinaning tadqiqotlarida ushbu muammoning psixologik jihatni tahlili qilinadi.

Ta'lim integratsiyasiga umumi yondashuvni talablarning individual xususiyatlari bo'yicha ko'rib chiqadi. [33] O'quv fanlarini bir fanga integratsiyalash uchun: tadqiqot obyektlari bir xil yoki bir biriga yaqin bo'lishi kerak; integratsiyalanayotgan o'quv fanlarida bir xil yoki o'xhash tadqiqot metodlaridan foydalaniladi; integratsiyalanayotgan o'quv fanlari umumi qonunlar, umumi nazariy tamoyillar asosida quriladi.

A.A.Pinskinning tadqiqotlarida o'quv fanlarini integratsiyalash ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlovchi didaktik sharoitlar sifatida ko'rib chiqiladi. Uning fikriga ko'ra, ta'limning asosiy tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ta'lim metodlari ham o'quv fanlari integratsiyasining yetakchi yo'naliishlarini belgilaydi. [30]

Integratsiya talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish deganda, bir nechta o'quv fanlarining yanada chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash (uning mustaqilligini saqlash bilan birga), mustahkamlash, o'zaro boyitish, tinglovchilarining evristik va bilish imkoniyatlarini kengaytirish; intellektual qobiliyatlarini oshirish va o'qitish samaradorligini rag'batlantirish tushuniladi.

Integratsiya talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim mazmuni, shakllari, bilim va ko'nikmalar sintezini tashkil qilish jarayoni sifatida talqin qilish ba'zi bir muhim xususiyatlarni aniqlashga olib keladi.

1. Xilma xillik. Bu xususiyat integratsiyalashgan ta'lim joriy etilgan ko'plab o'quv predmetlari, shuningdek, o'quv jarayonini ilmiy tashkil qilish va turli ta'lim shakllarini qo'llashni nazarda tutadi.

2. Ichki differensiya. Integratsiya bo'ysunish turiga ko'ra, mustaqillik, o'z konseptual asoslарini saqlab qoladi.

3. Umumiylit. Integratsiyalashgan ta'limni umumlashtirilishi fanlar tarkibini birlashtirilishi va yagona jadvalga integratsiyalashgan fanlar mavjudligi bilan ta'minlanadi.

4. Ko'p funksiyalilik. Integratsiyalashgan ta'limning ushbu xususiyati bir necha funksiyalarni bajarishni nazarda tutadi, bular ta'limni tashkil etishni optimallashtirish, grafika bilimlarni o'rganish dolzarbligini ta'minlashdir.

Shunday qilib, ushbu sohada ishlayotgan turli ta'lim muassasalarining tajribasi, adabiyotlar tahlili, oliy ta'lilda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishning ayrim kamchiliklari mayjudligini ko'rsatdi, ma'lum bir grafika asosida integratsiyalashgan ta'limni samarali amalga oshirish ta'minlash kerak.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir materiallar mazmuni va ularni tanlash prinsiplarini o'rganishga oid o'quv-metodik, didaktik, ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, mazkur tanlangan materiallardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim-tarbiyaviy ishlarni mazmun va sifat jihatdan takomillashtirishga, tinglovchilarnda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining shakllanishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

1. Tinglovchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallardan o'qitish samaradorligini oshirishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qanday an'anaviy, noan'anaviy metodlar hamda shakllarni qo'llab foydalanish kerakligi aniqlashtirilishi shart.

2. Tinglovchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallar mazmuni sodda, qisqa, lo'nda va eng muhimi tugallangan matnda ifodalangan bo'lishi lozim.

3. Tanlangan materiallar mazmuni va undagi faktlar haqqoniy bo'lishi zarur.

4. Tanlangan materiallar mazmuni va sinov savollari aniq hamda tushunarli bo'lishi talab etiladi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir materiallarni o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-

PEDAGOGIKA

tadqiqotning nazariy va pedagogik tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalari, olingan ilmiy xulosa va tavsiyalar quyidagi talablarga bo'yusunishi shart:

- tanlangan materiallar umumkasbiy va mutaxassislik fanlari konsepsiyalari, DTSlari, dasturlari va o'quv rejalarida o'z mazmunlarini topgan bo'lishi;

- fan-texnika-ishlab chiqarishning hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob berishi;

- tanlangan materiallarning takrorlanmasligi;

- tinglovchilar uchun notanish, qiyin atamalarning bo'lmasligi kabilar.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga asoslanib, aytish mumkinki umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid tanlangan materiallar bilan ularni ma'ruba va amaliy mashg'ulotlarda tanishtirish maqsadga muvofiq.

Quyidagi sxemani pedagogik tajriba-sinov ishlarida tekshirib ko'rish tavsiya etiladi:

1. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir materiallar tanlanadi.

2. Tanlangan materiallarning mazmuniga ko'ra muammolar qo'yiladi.

3. Qo'yilgan muammolarni yechishda zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalaniladi.

4. Pirovard natijada, muammolarning o'z yechimlari topiladi, qo'yilgan maqsadga erishiladi.

XULOSA

Adabiylarning monitoringli tahlili shuni ko'rsatadi, jismoniy madaniyat fakultetlarida kasbiy ta'lif kompetensiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagi vazifalarning hal etilishiga qaratilishi kerak:

- jismoniy tarbiya mutaxassisiga ijtimoiy xodim maqomini berish;

- yangi ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qoniqtirish asosida jismoniy tarbiya fanining rivojlanishini jadallashtirish;

- keng soha mutaxassislari fundamental tayyorgarligining eng taraqqiy etgan shakllarini ishlab chiquvchi va tarqatuvchi o'quv-metodik markazlar tizimini yaratish;

- jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lif tizimini yanada rivojlantirishni ta'minlovchi yangi tashkiliy tuzilmalar va texnologiyalarni yaratish;

- tinglovchilarning kasbiy kompetentligi shakllanganligini ta'minlovchi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PF-5847-sonli Farmoni/ "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi".09.10.2019y.,06/19/5847. (Decree No. PF-5847 of October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030"/ "National database of legal documents".October 9, 2019.06/19/5847.)

2. Коспоченко В.Ф. Концепция специального профессионального образования в вузах физического культуры в современных условиях: Авто- реф. дис. ... докт. пед. наук. — СПбГАФК, 1997. 40-с. (Kospochenko V.F. The concept of special vocational education in higher education institutions of physical culture in modern conditions: Abstract of the thesis. dis. ... doc. ped. Sciences. — SPbGAFK, 1997.40-p.)

3. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. — Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013. 15-б. (Muslimov N.A. and others. Technology of formation of professional competence of teachers of vocational education / Monograph. — T.: Science and technology publishing house, 2013. p. 15.

4. Toshtemirova, S. Chirchik experience in education. Academic research in Educational Sciences 1 (3), 2020. p. 445. (Toshtemirova, S. Chirchik experience in education. Academic research in Educational Sciences 1 (3), 2020. p. 445.)

5. Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситалярини яратиш ва кўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. — Тошкент: 2017. (Khamidov Zh.A. Technology of creation and application of modern didactic teaching tools in the training of future vocational teachers: Doctorate in Pedagogy (DSc) dissertation and author's abstract. — Tashkent: 2017.)